



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

YANGI O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI INVESTITSIYALARNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLALAR

Mirolimov Mirislom Mirshokir o'g'li

TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasи v.b dotsenti, PhD

e-mail:mirislom.mirolimov3138@gmail.com

+998903343138

Annotasiya:

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (qisqartmasi "TTXI") mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ish o'rnlari yaratilishi va texnologiya o'zgarishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'yndaydi. Biroq, global iqtisodiy noaniqlik, raqobatning kuchayishi va investitsiya muhitiga bo'lgan talablarning o'zgarishi tufayli "TTXI" jalb qilish amaliyotini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ""TTXI""ni jalb qilishni yanada samarali va raqobatbardosh qilish uchun zamonaviy yondashuvlar va amaliyotlarni o'rganib chiqamiz.

Kalit so'zlar: To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, iqtisod, muhit, shart-sharoit, imtiyozlar, barqaror rivojlanish.

ATTRACTING DIRECT INVESTMENTS TO THE NEW UZBEKISTAN: MODERN APPROACHES.

Mirolimov Mirislom Mirshokir o'g'li

Acting Associate Professor of the Department of Economic Statistics, TSUE, PhD

e-mail:mirislom.mirolimov3138@gmail.com

+998903343138

Abstract:

Direct investment (FDI) plays an important role in supporting the country's economic growth, job creation and technological change. However, due to global economic uncertainty, increased competition and changing requirements of the investment environment, it is important to improve FDI's engagement practices. In



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

this article, we will explore modern approaches and practices to make FDI engagement more effective and competitive.

Keywords: Direct investment, economy, environment, conditions, benefits, sustainable development.

ПРИВЛЕЧЕНИЕ ПРЯМЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ.

Mirolimov Mirislom Mirshokir o‘g‘li

И.о. доцента кафедры экономической статистики ТГЕУ, PhD

e-mail:mirislom.mirolimov3138@gmail.com

+998903343138

Аннотация:

Прямые инвестиции (ПИ) играют важную роль в поддержке экономического роста страны, создании рабочих мест и технологических изменений. Однако из-за глобальной экономической неопределенности, усиления конкуренции и изменения требований инвестиционной среды важно улучшить практику взаимодействия ПИ. В этой статье мы рассмотрим современные подходы и практики, позволяющие сделать взаимодействие с ПИ более эффективным и конкурентоспособным.

Ключевые слова: Прямые инвестиции, экономика, окружающая среда, условия, выгоды, устойчивое развитие.

KIRISH

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun yo‘li bilan keng ko‘lamdagи imtiyozlar, afzalliliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingtadan ko‘proq korxona tashkil qilindi va



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko‘proq asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilmoxda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko‘prog‘i ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlanirish istiqbollariga qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida asosan xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o‘sish suratlari investitsiya muhitiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhim, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud (ijobiy) bo‘lsagina o‘sha davlat iqtisodiyotiga qo‘yilishi mumkin[1].

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirop etish huquqiga ega bo‘lgan, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalardir[2].

Xorijiy investitsiyalar ijtimoiy qatlamda mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalar ishtiropidagi kompaniyalar tashkil etish orqali o‘rtacha mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Bunday kompaniyalar har bir mehnat birligiga yuqori darajada kapital kiritishga qodir bo‘ladilar, bu esa mehnat unumdorligining o‘sishiga bevosita ta‘sir etadi. Shu bilan birga, ular vositasida aholi bandligini ta‘minlash va ishsizlikni bartaraf etish mumkin. Aholini ish bilan bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar ishtiropidagi korxonalar faoliyat yuritayotgan korxonalar yildan yilga ortib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar o‘zi bilan, bиринчи navbatda, ilg‘or texnologiyalarni jalb etilishiga turtki bo‘ladi. Aynan, xorijiy investitsiya ishtiropidagi korxonalar rivojlangan raqobatbardosh firmalar hisoblanib, ular xarajatlarning katta qismini fan-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

ishlari uchun sarflashga hamda ishlab chiqarish faoliyati uchun yangi fan-texnika yutuqlarini joriy etishga qodir bo‘ladilar[3].

Adabiyotlar sharhi

Xorijiy investitsiyalarning umumiy ta’rifi F. Xeniusning 1947 yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug‘atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: “Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar” deb ataydi. [4].

Professor D.G‘ozibekovning xorijiy investitsiyalar to‘g‘risidagi nazariy qarashlarida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot sub’ekti kapitalini o‘zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog‘lash bo‘lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab kapital ko‘chishi yuz beradi”.[5]

Ushbu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, xorijiy investitsiyalar bir mamlakat iqtisodiyotidan mutloq boshqa davlat iqtisodiyotiga ko‘chuvchi kapital bo‘lib, u risklar doirasi kengligi bilan ichki investitsiyalardan farqlanadi. Shuningdek, iqtisod fanlari doktori N.Qo‘ziyevaning ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mohiyati to‘g‘risida: “Kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko‘rinishdagi boyliklar (ko‘char, ko‘chmas mol-mulk, intellektual boyliklar va boshqalar) va ulardan olingan daromadlar (foyda, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, roylati, texnik ta’midot va boshqa mukofotlar)ni qo‘yilishiga xorijiy investitsiyalar deyiladi”[6] degan ta’rif keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakat iqtisodiyoti va rivojlanishiga ta’sirini statistik tahlil qilish va statistik ma'lumotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida olib borilgan tadqiqot jarayonida statistik jadval va grafiklar, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash,



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

tahlil va sintez, dinamik qatorlar va iqtisodiy indekslar kabi turli statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar:

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, iqtisodiyotning TTXIni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish holati ichki bozor hamda eksportning hajmi, tabiiy va mineral ishchi kuchi mavjudligi, bozor islohotlarini amalga oshirish sur’atlari, iqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog‘liqdir. 47 % to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xorij kapitalining uzoq muddatga joylashtirilishini, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksiyadorlik kapitaliga to‘la ega bo‘lishi yoki kamida 10 foizi xo‘jalik faoliyatining ta’sirchan nazorat qilinishi ta’minlashini anglatadi.

I. TTXI jalb qilishni yanada samarali va raqobatbardosh qilish uchun quyidagi shartlar amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

1. Investitsiya muhitini yaxshilash:

Siyosiy va huquqiy barqarorlik: Investitsiyalarni jalb qilish uchun siyosiy va huquqiy barqarorlikni ta’minlash muhimdir. Bu shuni anglatadiki, davlat investitsiya qoidalarini o‘zgartirmaydi, korrupsiyaga qarshi kurashadi va investorlarning huquqlarini himoya qiladi.

Qulay biznes muhiti: Qonunlarni soddallashtirish, ruxsatnomalar olish jarayonini tezlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va soliqlarni optimallashtirish kabi tadbirlar biznes muhitini yanada qulaylashtiradi.

Infrastruktura: Zamonaviy va ishonchli infratuzilma (energetika, transport, kommunikatsiya) investorlarni jalb qilish uchun muhim omildir.

Malakali ishchi kuchi: Investitsiyalar jalb qilinishi uchun malakali va o‘qimishli ishchi kuchiga ega bo‘lish juda muhim. O‘qitish dasturlari va kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash investorlarning ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

2. Investorlar bilan munosabatlarni mustahkamlash:

Shaffoflik va hisobdorlik: Investitsiya qoidalarini aniq va oshkor qilish, investorlarni jalb qilish jarayonini shaffof qilish va investorlarga xizmat ko‘rsatish standartlarini yaxshilash investorlarning ishonchini oshiradi.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

Investitsion targ‘ibot: Mamlakatning investitsiya imkoniyatlarini va afzalliklarini ta’kidlovchi investitsion targ‘ibot kampaniyalari investorlarni jalg qilishga yordam beradi.

3. Stratejik sohalarga investitsiyalarni yo‘naltirish:

Innovatsiya va texnologiyalar: Ilmiy tadqiqotlar va texnologiya rivojiga investitsiyalar, texnologiya parklarini yaratish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi va to‘g‘ridan to‘gri investitsiyalarni jalg qiladi.

Ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalar: Ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalar tomon yo‘nalish, aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, gender tengligi va xilma-xillikka e’tibor qaratish investorlarning qiziqishini oshiradi.

4. Raqamli texnologiyalardan foydalanish:

Onlayn platformalar: Investitsion imkoniyatlar haqida ma'lumot beruvchi, investorlar bilan aloqa o‘rnatuvchi va ruxsatnomalar olish jarayonini soddallashtiradigan onlayn platformalar to‘g‘ridan tog‘ri investitsiyalarni jalg qilishni tezlashtiradi va investorlarning tajribasini yaxshilaydi.

Ma'lumotlar tahlili: Ma'lumotlarni tahlil qilish investorlarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga, DI oqimlarini kuzatib borishga va davlat siyosatining samaradorligini baholashga imkon beradi.

5. Xalqaro hamkorlik va o‘zaro ta’sir:

Investitsiya agentliklari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik: Xalqaro investitsiya agentliklari va xalqaro tashkilotlar (masalan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki) bilan hamkorlik investitsiyalarni jalg qilish strategiyasini takomillashtirishga va moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirishga yordam beradi.

Boshqa mamlakatlar bilan tajriba almashish: Boshqa mamlakatlarning FTIni jalg qilish strategiyasini va amaliyotlarini o‘rganish va ularning eng yaxshi amaliyotlarini qo‘llash investitsiya muhitini yaxshilashga yordam beradi.

6. Innovatsiya va texnologiyani qo‘llab-quvvatlash:

Ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish: Davlat ilmiy tadqiqotlar va texnologiya rivojiga sarmoya kiritish, universitetlar va tadqiqot markazlarini qo‘llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali yangiliklarni rag‘batlantirishi kerak.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

Texnologiya parklari va inkubatorlar: Texnologiya parklari va inkubatorlarni yaratish startaplar va kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlash, ularga infrastruktura va moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlash va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Raqamlı infrastruktura: Tez va ishonchli internetga kirish, bulutli hisoblash xizmatlari, kiberxavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlarga kirishni soddalashtirish - bu investorlar uchun muhim omildir.

7. Xalqaro hamkorlik:

Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari: Boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama investitsiya shartnomalari imzolash investorlarni jalb qilish uchun huquqiy asos yaratadi va ularning huquqlarini himoya qiladi.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik: Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik davlatning investitsiya loyihamalarini moliyalashtirish uchun kreditlar va grantlar olish imkoniyatini kengaytiradi.

Investitsion forumlar: Investitsion forumlarni tashkil qilish investorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, investitsion imkoniyatlarni taqdim etish va mamlakatning investitsiya muhitini targ'ib qilish imkoniyatini beradi.

8. Doimiy baholash va takomillashtirish:

Investitsion muhitni o'rganish: Investitsion muhitni muntazam ravishda o'rganish va baholash investorlarning nuqtai nazaridan kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi.

Amaliyotlarni yaxshilash: O'rganish natijalariga asoslanib, investitsiya qoidalarini va amaliyotlarni doimiy ravishda takomillashtirish kerak.

Xalqaro standartlarga mos kelish: Investitsiya qoidalarini Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki kabi tashkilotlarning xalqaro standartlariga moslashtirish investorlarning ishonchini oshiradi.

II. O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy bayonotida 2017-2023 yillarda investisiya va tashqi savdo sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilgani aniq raqamlar misolida keltirilgan[7].



E CONF SERIES




International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

1-jadval. 2017-2023-yillarda investitsiya muhitini yaxshilash uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar



Hususan investitsiya muhitini yaxshilash doirasida:

a) So'nggi yillarda, davlatning biznesni tartibga solishga qaratilgan 500 ta funksiyasi bekor qilindi, 70 tasi davlat-xususiy sheriklik va autsorsing asosida xususiy sektorga o'tkazildi.

Shuningdek, 132 ta lisensiya va ruxsat berishga oid hujjatlar bekor qilindi, 33 tasi bo'yicha xabardor qilish tartibiga o'tildi. Eng muhimi – ushbu islohotlar doirasida investorlar bilan ishslashning yaxlit tizimi joriy qilindi.

Xorijiy investorlarning o'z aksiyalaridan oladigan dividendlari uch yil muddatga soliqdan ozod qilindi, ular uchun foyda solig'i 20 foizdan 12 foizga tushirildi. Muhimi – soliq va bojxona Kodekslariga yangi yoki og'irlashtiruvchi javobgarlik choralari kiritilmasligi qat'iy belgilab qo'yildi.

b) Tashqi savdoni erkinlashtirish bo'yicha navbatdagi muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan, investorlar uchun zarur bo'lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

bojxona bojlari bekor qilindi. Bojxona hududida qayta ishslashning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi.

Tashqi savdo va raqobat muhitini yangi bosqichga olib chiqish, yangi bozorlarga kirish maqsadida Juhon savdo tashkilotiga qo'shilish borasidagi ishlar jadallashtirildi (2-jadval).

2-jadval. Xorijiy investorlar uchun imtiyoz va preferensiyalar



INVESTORLARGA CHET EL VALYUTASIDAGI
MABLAG'LARNI CHEKLOVLARSIZ ERKIN O'TKAZISH,
VALYUTANI REPATRIATSIYA QILISH UCHUN
AYIRBOSHLASH KAFOLATLANADI



200 MLRD SO'MDAN OSHADIGAN
INVESTITSIYA LOYIHALARI
ZARUR TASHQI MUHANDISLIK-KOMMUNIKATSIIA
TARMOQLARI BILAN TA'MINLANADI

TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIV INVESTITSIYALARINI
JALB ETUVCHI SUBYEKTLARGA



KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MIQDORI

MLN DOLLAR

0,3 – 3,0
dan gacha

Imtiyoz muddati: 3 yil

3,0 – 5,0
dan gacha

Imtiyoz muddati: 5 yil

5,0 – 10,0
dan gacha

Imtiyoz muddati: 7 yil

10,0+
dan oshiq

Imtiyoz muddati: 10 yil

YER SOLIG'I, MULK SOLIG'I HAMDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN
SOLIQ TO'LASHDAN OZOD ETILGAN

a) Investorlarga soliqlar va to'lovlarni to'lash sharti bilan chet el valyutasidagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasiga va O'zbekiston Respublikasidan cheklovatarsiz erkin o'tkazish, shu jumladan valyutani repatriatsiya qilish uchun ayirboshlash kafolatlanadi.

Shuningdek, chet ellik investor investisiya faoliyatini tugatgandan so'ng investisiya faoliyatini tugatish natijasida olingan o'z aktivlarini naqd pul yoki natural shaklda chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasiga yoxud boshqa kreditorlarga nisbatan majburiyatlarini bajarish uchun zarar yetkazmagan holda erkin repatriatsiya qilish huquqiga ega.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilgan holda tashkil etilgan va tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslarga yer solig'i, mulk



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

soliq‘i va suvdan foydalanish solig‘idan ozod qilish shaklidagi soliq imtiyozlari beriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb etuvchi sub’yektlarga ma’lum muddatga mazkur soliq imtiyozlari beriladi, ular investisiyalar miqdoriga qarab o‘zgaradi:

300 ming dollaridan 3 mln dollarigacha – 3 yil muddatga;

3 mln dollardan ortiq 10 mln dollargacha – 5 yil muddatga;

10 mln dollaridan ortiq – 7 yil muddatga.

b) Yuqoridagi soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida cheklanmagan holda beriladi:

korxonalar tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga yoki ayrim sohalarda xizmatlar/ishlarni bajarishga ixtisoslashgan bo‘lishi kerak;

korxonalar Toshkent viloyati va Toshkent shahridan tashqari, O‘zbekistonning istalgan shahar yoki qishloq aholi punktlarida joylashgan (sayohat va chiqindilarni qayta ishlash xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalar bundan mustasno);

O‘zbekiston Respublikasi bunday xorijiy investisiyalar uchun suveren kafolatlar bermaydi:

yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foizni, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa 15 foizdan kam emas; investisiyalar valyutada yoki yangi/zamonaviy texnologik uskunalarda amalga oshirilishi va tegishli soliq imtiyozining kamida 50 foizi korxonalarni yanada rivojlantirish uchun qayta investisiya qilinishi kerak. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxona soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega.

c) Investorning qiymati 200 mlrd so‘mdan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati uchun — 50 mlrd so‘mdan) oshadigan, uning o‘z mablag‘lari ulushi 25 foizdan kam bo‘lmagan, investisiya dasturlariga kiritilgan loyihibarini zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi belgilandi.

Shu bilan birga, qo‘yidagi ishlarni olib borilmoqda:

Xalqaro moliya tashkiloti bilan quyidagi yo‘nalishlarda Qonun loyihibar ishlab chiqilmoqda:



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

- “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida” (yangi tahrirda);
- “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida” (yangi tahrirda);
- Startap va innovasion loyihalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida “Muqobil investisiyalar to‘g‘risida”gi (venchur investisiyalar).

Xulosa va natijalar

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan foyda va uning o‘zi uch guruh omillarga bog‘liq, ya’ni xalqaro ishlab chiqarishga kirishayotgan firmaning mulkka egalik qilishdan yuzaga keladigan qiyosiy afzalliklari transmilliy korporatsiyaning qaysi hududda ishlab chiqarishni tashkil etishini belgilovchi hududiy joylashuv omillari, transmilliy korporatsiyalarning boshqa firmalarga litsenziya sotish yoki ular bilan franchayzing shartnomasini tuzishdan ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kiritishni ma’qul ko‘rishlariini asoslovchi internatsionalizatsiyalashuv omillari OLI modelida mazkur uchta guruh afzalliklaridan to‘liq foydalanish imkoniyati xalqaro kapital harakati shakllaridan faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar usulida mavjudligini asoslab beradi”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, investitsiya jarayonida ishtirokchi tomonlarni o‘zaro bir-biri to‘g‘risidagi to‘liq va ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minalash; xorijiy iqtisodiy sub’ektlar bilan o‘zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish va ular bilan erkin investitsion iqtisodiy zonalarni tashkil etish;

infratuzilmasi mavjud va rivojlanishi qulay bo‘lgan joylarga investorlarni jalb qilish orqali sanoatni tizimli rivojlantirish;

xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda xorijiy investorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi jamg‘armalar tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yuqoridaq vazifalarni o‘z vaqtida bajarish maqsadida tegishli vazirlik va idoralardan qo‘yidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishchi guruh tuzilib, Xorijiy investorlar kengashining kotibiyat bilan birgalikda majlislarlar olib borilyapti:

kapital bozorini rivojlantirish, shu jumladan xorijiy investorlarning talablariga to‘liq javob beradigan xalqaro moliya markaziga aylantirish;



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

mas'uliyatli biznes yuritish, iqtisodiyot barqarorligi, shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga qaratilgan IHTTning tamoyillarini keng joriy etish;

muqobil investisiyalar va ularni rag'batlantirish shu jumladan startap, innovation loyihalar, birgalikdagi sarmoyalarni ko'paytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida muqobil (venchur) investisiyalar bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish;

investorlar bilan ishlash tizimini raqamlashtirish, jumladan, xorijiy investorlar bilan davlat organlari o'rta sidagi barcha xizmatlarni amalga oshirish uchun mukammal elektron platformani ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G'ozibekov D.G., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b.
- 2.Sh.Ahmadjonova. "Iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda investitsiya faoliyatini muhim ahamiyati"/ "Investitsiya faoliyatining xalqaro huquqiy kafolatlari"/ "международно-правовые гарантии инвестиционной деятельности" / "international legal guarantees of investment activity" [Matn] Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: TDYU nashriyoti, 2023.– 248 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 10-novabr 2023 yildagi PF-193-son farmoni.
- 4.Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. – T.: BMA, 2008, 11 bet.
- 5.Valiev B.B. To'g'ridan –to'g'ri xorijiy investitsiyalarni harakalantiruvchi omillardanining ekletik nazariyasi yoxud OLI modelining mohiyati. // Iqtisod va moliya. Toshkent. 2013. № 2. –Б.28.
6. A.Saydullayev. "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat eksport salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar yordamida baholash" Iqtisodiyot va ta'lim jurnali /2024-yil 2-son
7. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb sayti).



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th March, 2025

8.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan: www.mineconomy.uz

9.https://gov.uz/oz/miit/activity_page/investitsiyalar

10.https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a5

11. https://gov.uz/oz/miit/activity_page/investitsiyalar